

"TASDIQLAYMAN"

Qashqadaryo viloyati hokimligi  
yagona buyurtmachi xizmati injiniring  
kompaniyasi boshlig'i



A. Normo'minov

" "

2022 y.

Qashqadaryo viloyati Dexqonobod tumani "Zavqiy" MFYda ichimlik suv  
tarmoqlari va yig'ib tarqatish inshooti qurilishi  
obyekti bo'yicha ishchi loyihaning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

### TEXNIK TOPSHIRIQ

2022 y.



<b>№</b>	<b>Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati</b>	<b>Asosiy ma'lumotlar va talablar</b>
1.	Buyurtmachi	Qashqadaryo viloyati hokimligi yagona buyurtmachi xizmati "Injiniring kompaniyasi"
2.	Ob'ekt nomi	Dexqonobod tumani "Zavqiy" MFYda ichimlik suv tarmoqlari va yig'ib tarqatish inshooti qurilishi
3.	Qurilish joyi	Qashqadaryo viloyati Dexqonobod tumani
4.	Ishchi loyihani ishlab chiqish uchun asos	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdag'i PQ-172-sonli qaroriga va Qashqadaryo viloyat kengashining 2022 yil 5 fapreldagi VI-43-4-0-X/22 – sonli qaroriga asosan
5.	Qurilish turi	Qurilish
6.	Moliyalashtirish manbasi	Davlat byudjeti mablag'lari
7.	Qurilishning taxminiy qiymati, mln. so'm.	6 450,0 mln. so'm.
8.	Loyiha tashkilotining nomi - bosh loyihami	Tanlov bo'yicha aniqlanadi
9.	Loyiha quvvati	Loyihani ishlab chiqishda aniqlanadi
10.	Qurilish maydonining xususiyatlari: Yer maydoni haqida ma'lumot va rejalashtirish cheklovlari. Maxsus geologik va gidrogeologik sharoitlar (yer maydoni xususiyatlari)	Muhandislik -qidiruv ishlarining xulosasiga ko'ra.
11.	Loyihalanadigan inshootning asosiy ko'rsatgichlari va ro'yxati	<p><b>Yangi qurilish:</b></p> <p>I. Ichimlik suv tarmoqlar qurilishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ichimlik suv tarmog'i, taxminiy uzunligi 25 km (uzunligi va diametri loyihani ishlab chiqishda aniqlanadi)</li> </ul> <p>II. Ichimlik suv manbasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavjud magistral suv tarmoqlaridan xududiy "suv ta'minoti" MChJning texnik shartiga asosan ulash;</li> </ul> <p>III. Ichimlik suv inshooti qurish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- toza suv saqlash xovuzi qurish (sig'imi va soni loyixani ishlab chiqishda aniqlanadi)</li> </ul> <p>IV. Nasos stantsiya qurish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ikkinchi ko'tarma nasos stantsiyasi qurish (quvvati loyixani ishlab chiqishda aniqlanadi)</li> </ul> <p>V. Elektr va Avtomatik boshqaruv tizimi(ASU):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavjud katta kuchlanishli xavo liniyasidan tarmoq tortish; (uzunligi va kuchlanishi loyihani ishlab chiqishda aniqlanadi);</li> <li>- transformator podstantsiyasini o'rnatish; (quvvati loyihani ishlab chiqishda aniqlanadi);</li> </ul> <p>VI. Jihoz va uskunalar o'rnatish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- svuni zararsizlantirish uskunasini (amalgama lampali bakteritsid, uskunasi) suv qudug'i joylashgan pavilyonda o'rnatish;</li> </ul> <p>VII. Inshoot hududini obodonlashtirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- video kuzatuv kamera o'rnatish;</li> <li>- darvoza o'rnatib yevro setkali devori bilan o'rash.</li> </ul>
12.	Texnologik jarayonlar va uskunalarga qo'yiladigan asosiy talablar	<p>Ishchi loyihani ishlab chiqishda quyidagilar hisobga olinsin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-ulanish nuqtasi va tugallanish nuqtasi "xududiy suv ta'minoti" MChJ tomonidan berilgan texnik shartga asosan;</li> </ul>

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati	Asosiy ma'lumotlar va talablar
		<p><b>I. Ichimlik suv tarmoqlar qurilishi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- polietilen va polipropilen quvurlarni qo'llash (zavodda ishlab chiqarilgan quvurlarni o'rnatishda mualiflik nazoratida qattiq nazorat qilinsin);</li> <li>- tashqi izolatsiyalangan metall quvurlarni qo'llash;</li> <li>- nazorat quduqlari ishlab chiqaruvchi tomonidan quvur o'tkazish tuynuklangan (otvertsiyalangan) temir beton konstruktsiyalarni qo'llash;</li> <li>- nazorat qudug'i qopqog'i- GOST-3634-99 og'ir yuk ko'tarma markali, "O'zsuvtaminot" logotipi yozuvi bilan loyihalash;</li> <li>- qo'llanishi lozim bo'lgan joylarda xavo chiqarish (vantuz uskunasi o'rnatish (antivandalismiy);</li> <li>- xonadonlarga suv xisoblagich uchun namunadagi nazorat qutisini qo'llash (chizma va foto rasmlari ilova qilinadi);</li> <li>- loyihani ishlab chiqishda ichimlik suv tarmog'ini uy xo'jaligigacha o'tkazilishi bilan bir qatorda xar bir xonadonga suv hisoblagichlarning o'rnatilishi ko'zda tutilsin;</li> </ul> <p><b>II. Ichimlik suv manbasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yordamchi binoni yengil konstruktsiyali sendvichdan (bazaltli) oq rangli va hoshiyasi perimetri bo'yicha ko'k rangli pavilion qurish;</li> <li>- zamonaviy energotejamkor nasos va uskunalarni qo'llash;</li> <li>- loyixalarda tarmoqlar va inshootlarni gidravlik xisobini bajarish;</li> <li>- suv manbaalaridan chiqish qismiga zamonaviy suv xisoblagichlar o'rnatish;</li> </ul> <p><b>III. Ichimlik suv inshooti qurish: (rezervuar)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- toza suv saqlash xovuzini qurishda yig'ma temir-beton panellarni qo'llash;</li> <li>- zamonaviy beton maxsulotlarini sifatini oshiruvchi materiallardan foydalanish;</li> <li>- tuproq ustidan chaqiq toshli qoplamlarni qo'llash;</li> </ul> <p><b>IV. Nasos stantsiya qurish:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yengil metall konstruktsiyalar va sendvich panellarni (bazaltli) oq rangli va hoshiyasi perimetri bo'yicha ko'k rangni qo'llash;</li> <li>- tom qismida ko'k rangli sendvich profilli panellarni qo'llash;</li> <li>- poydevorda kulrang bo'yokni qo'llash, sendvich devor bilan poydevor orasiga poydevorni yog'ingarchilikdan himoyalash;</li> <li>- eshik va derazalarda alyumin romlarni foydalanish;</li> <li>- nasos stantsiya pol qismini beton qoplamlari qilish (vertolyot);</li> </ul> <p><b>V. Elektr va Avtomatik boshqaruvi tizimi(ASU):</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- zamonaviy elektron ekonom tizimli</li> </ul>

Nº	Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati	Asosiy ma'lumotlar va talablar
		<p>transformator podstantsiyalarini o'rnatish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- texnologik jarayonlarni markazlashtirilgan tartibda nazorat qilish, boshqarish va elektr energiya va suv sarfi hisobini yuritishda SCADA tizimiga ulanishi mumkin bo'lgan o'lchov asboblari va jihozlari qo'llanilsin;</li> </ul> <p>VI. Jihoz va uskunalar o'rnatish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- suv minorasi o'rnatishda kirish va chiqish quvurlarida muzlashga qarshi ximoya (teplo izolyatsiya) qilish;</li> <li>- suv saqlash minorasini avtomatik o'chirib yoqish uskunasi bilan jixozlash xamda minorani kul rangda, tepe qismiga och ko'k rangda "O'zsuvta'minot" logotipi yozuvi tushirishni ko'zda tutish;</li> <li>- epoksid qoplamlari zadvijka va qaytaruvchi klapanlar o'rnatish;</li> <li>- zamonaviy suv sarfini o'lchash qurilmalarini qo'llash (ulanish nuqtasida va suv tarqatish tugunining chiqishida)</li> </ul> <p>VII. Inshoot hududini obodonlashtirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- xududdagi asosiy yo'laklar GPS qoplamlari, kam qatnovli yo'laklarga qum-shag'alli qoplamlarni qo'llash;</li> <li>- kul rangli temir darvoza o'rnatib, yashil rangli yevro setka devori bilan o'rash va poydevorni kulrang bilan bo'yash;</li> <li>- loyixani xududiy "suv ta'minoti" MChJ bilan kelishish;</li> </ul>
13.	Inshoot ish rejimi	Doimiy
14.	Tashqi transport aloqalari va ta'minot tizimi	Mavjud tashqi transport aloqalari va ta'minot tizimlaridan foydalanilsin
15.	Atrof-muhit muhofazasiga qo'yiladigan talablar	"Atrof-muhitga ta'sir to'g'risida ariza" loyihasini bajarish (proekt ZVOS)
16.	Rekul'tivatsiya va obodonlashtirishga bo'lgan talab	Loyihada aniqlanadi
17.	Rejalashtirilgan qurilish muddati	2022 yil
18.	Majmualarni ishga tushirish zaruriyati va ketma-ketligi	Talab etilmaydi
19.	Muhandislik tadqiqotlar ishlab chiqarish uchun talablar	O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qoida va yo'riqnomalarga asosan
20.	Maxsus qurilish sharoitlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Qurilayotgan ob'ektlardagi tuproqlarning hisoblangan seysmikligi va xususiyatlari muhandislik-geologik xulosaga muvofiq.</li> <li>- Loyerha smeta hujjatlarini ishlab chiqishda belgilangan tartibda ShNK 4.02.00-04 ga muvofiq ish haqi va mashinalar ishlashi me'yorlariga nisbatan;</li> </ul>
21.	Loyihalash uchun maxsus shartlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ishchi loyerha amaldagi qonun va qoidalarga</li> </ul>

No	Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati	Asosiy ma'lumotlar va talablar
		<p>muvofig ishlab chiqilsin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qurilishning boshlang'ich narxlari qonunchilikda belgilangan tartibda bugungi kundagi narxlar o'rganib chiqilgan xolda hisoblansin</li> <li>- Ishchi loyiha barcha xulosalar bilan birga to'liqligicha buyurtmachiga bosma shaklda rangli 3 nusxada va elektron shaklda taqdim etilsin.</li> <li>- Joriy narxlarda va narxlarsiz resurslar ro'yxati va mahalliy-resurs varaqasi - 2 nusxada.</li> <li>- Resurs varaqasi va elektron versiyada mahalliy ro'yxat - 1 disk</li> </ul>
22	Hisob-kitoblar varianti	Talab etilmaydi
23	Fuqaro mudofaasining muhandislik-texnik chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar va favqulodda ogohlantirishlar	viloyat FVB talablariga binoan
24	Qo'shimcha talablar	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bajaruvchi ekspertizadan o'tkazish jarayonida loyiha yechimlari to'g'ri qo'llanilganligi bo'yicha himoya qilish chora-tadbirlarini amalgalash oshirish</li> <li>2. Loyerha tashkiloti ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarini manfaador tashkilotlar bilan kelishishni ta'minlaydi. (FVV, Sanitariya -epidemiologik osoyishtalik xizmati arxitektura va qurilish boshqarmasi, xududiy "suv ta'minoti" MChJ va h.k)</li> </ol>
25	Loyixa tashkilotining majburiyatları	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qarorini 4-ilovasi II-bo'lim 8-punkti hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrdagi PQ-43-sonli qaroriga asosan ga ko'ra loyihalash jarayonida yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklarga bosh loyiha tashkiloti tomonidan javobgar etib ko'rsatilganligi sababli loyiha ishlari uchun o'zaro tuzilgan shartnomaning 70% miqdoridagi jarima qo'llanilishini va bosh pudratchiga etkazilgan zararni (buzib olish ishlari) uz xisobingizdan qoplab berishingizni ma'lum qilamiz.

Qashqadaryo viloyat hokimligi  
yagona buyurtmachi xizmati injiniring  
kompaniyasi loyiha bo'lim boshlig'i

T. Turayev